

EKOLOGIK HUQUQNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI.

Toxirov Odil

*TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi
akademik litsey 1-bosqich 1.12-guruh o'quvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ekologiya huquqining konstitutsiyaviy negizi, mazmun-mohiyati, konstitutsiyada belgilangan fuqarolarning ekologik burchlari va kafolatlari haqida tahlil qiladi. Konstitutsiyada O'zbekiston ekologik taraqqiyot strategiyasining asosiy qoidalari, ekologik va aholining ekologik xavfsizligiga doir talablar belgilangan bo'lib, ushbu siyosiy-huquqiy hujjat mamlakatimizda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha eng muhim va asosiy qoidalarni belgilab beradi. Ma'lumki, konstitutsiyaviy normalarning ekologik siyosatni amalga oshirishdagi o'rni va ahamiyati beqiyos. Asosiy qonunda davlat organlari va jamoat birlashmalarining ekologik faoliyatini shakllantirish bo'yicha asosiy prinsiplarini hamda jamiyatning ekologik barqaror rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini bayon qiladi.*

Kalit so'zlar: *ekologik huquq, konstitutsiya, jamiyat, normalar, prinsip, qonun.*

CONSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECOLOGICAL LAW.

Annotation: *This article analyzes the constitutional basis of ecological law, the content and essence of the ecological duties and guarantees of citizens established in the constitution. The Constitution establishes the main provisions of the ecological development strategy of Uzbekistan, requirements for environmental and ecological safety of the population, and this political and legal document determines the most important and basic rules for protecting the environment and using natural resources in our country. As is known, the role and importance of constitutional norms in the implementation of environmental policy are incomparable. The Basic Law sets out the basic principles for the formation of environmental activities of state bodies and public associations, as well as priority areas for the environmentally sustainable development of society.*

Keywords: *ecological law, constitution, society, norms, principle, law.*

КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ПРАВА.

Аннотация: *В данной статье анализируются конституционные основы экологического права, содержание и сущность экологических обязанностей и гарантий граждан, установленных в конституции. Конституция устанавливает основные положения стратегии экологического развития Узбекистана, требования к окружающей среде и экологической безопасности населения, а*

также этот политико-правовой документ определяет важнейшие и основные правила охраны окружающей среды и использования природных ресурсов в нашей стране. Как известно, роль и значение конституционных норм в реализации экологической политики несопоставимы. Основным закон устанавливает основные принципы формирования природоохранной деятельности государственных органов и общественных объединений, а также приоритетные направления экологически устойчивого развития общества.

Ключевые слова: экологическое право, конституция, общество, нормы, принцип, закон.

KIRISH

Bugungi kunda insoniyat to'qnash kelayotgan eng katta muammolardan biri – hech shubhasiz, ekologik muammolardir. Bu muammo so'nggi vaqtlarda nafaqat olimlar, soha mutaxassislari, balki xalqaro tashkilotlar hamda siyosatchilar tomonidan ham insoniyat kelajagiga halokatli xavf soladigan muammolardan biri deb baholanmoqda. Hayotimizning turli jabhalarida – iqtisodiy faoliyatda, shaharsozlikda, kundalik turmushda qaror qabul qilishda ekologik omillarni hisobga olish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Shu sababli, ko'plab davlatlar qatori O'zbekiston ham o'z huquqiy tizimida, avvalo, Konstitutsiyada ekologik masalalarni alohida e'tibor bilan mustahkamlamoqda. Konstitutsiyaviy normalar tizimi jamiyat va tabiatning o'zaro aloqalari chog'ida yuzaga keladigan va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tavsifidan kelib chiqib, shartli ravishda ikki qismga – umumiy va maxsus ekologik normalarga bo'linishi mumkin.

Bu tizim demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda, davlat hokimiyati organlarining faoliyatini tashkil etishning asosiy prinsiplarini belgilashda, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlashda, ekologik huquq-tartibotni mustahkamlashda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Metodologiya.

Konsitutsiya bu huquqiy poydevor ekan unda har bir fuqaroning huquq va majburiyatlari har qanday sohaga o'z ta'sirini o'tkazar ekan. Qolaversa ekologiya huquqlar konstitutsiyamizning bir qator moddalaridan joy olgan. Bu albatta fuqarolarning atrof muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kerakligi mustahkamlab qo'yilgan.

Ushbu maqolani tayyorlashda badiiy hamda ilmiy manbalarga murojaat qilingan. Ishonamizki sizga foydali manbaa bo'lishiga.

Asosiy qism

10'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Muqaddimasidayoq "...mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib", mazkur masalaga davlat siyosati darajasida urg'u berilayotganligi

tahsinga sazovordir. Bu yondashuvni konstitutsiyaviy darajada belgilash – davlatimizning tabiat muhofazasiga nisbatan strategik qarashini aks ettiradi.

Konstitutsiyaning 49-moddasida har bir fuqaroning qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqi mustahkamlangan. Bundan tashqari, davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilangan.

Iqtisodiy o'sishning an'anaviy modelidan "yashil iqtisodiyot"ga o'tish nafaqat alohida milliy iqtisodiyotni, balki butun sayyora barqarorligini belgilaydigan global tendensiyadir. "Yashil o'sish" ko'plab davlatlarning maqsadiga aylanib, global ekologik muammolarni hal qilishning muhim vositasi sifatida ularning Konstitutsiyalarida aks ettirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham davlatning barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi belgilab qo'yilgan.

1 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023y

Bu norma "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish uchun konstitutsiyaviy asos bo'lib xizmat qiladi.

"Yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida rivojlanishning amaliy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

Atrof-tabiiy muhit obyektlaridan oqilona foydalanish va biologik resurslarning qayta tiklanishini ta'minlash;

Iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga va aholining salomatligiga salbiy ta'sirini pasaytiruvchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish;

Iqtisodiyotning barcha sohalarini "yashil" iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan siyosat yuritish.

Konstitutsiyamizning 62-moddasiga asosan esa fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar degan norma keltirilgan ya'ni bunda har bir fuqaro atrof tabiiy muhitga salbiy oqibatlar keltirib chiqarmasligi ehtiyotkorona munosabatda bo'lishligi majburiyat sifatida ta'kidlab o'tilgan.

Muhokama.

O'zbekiston Konstitutsiyasidagi ekologik normalarda Orolbo'yi mintaqasiga alohida e'tibor qaratilgan. Konstitutsiyada davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'rishi belgilab o'tilgan.

Bu o'zgacha yondashuv Orol fojiasining naqadar ulkan ekologik va gumanitar muammoga aylanganini, bu hududda ekologik muvozanatni tiklash butun mintaqaga, qolaversa, global miqyosdagi vazifa ekanligini ko'rsatadi. Konstitutsiyada bu masalaning alohida belgilanishi davlatimizning Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik

muammolarni hal etishga bo'lgan strategik qarashlari va qat'iy siyosiy irodasining isbotidir.

Xulosa

2Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan ekologik-huquqiy normalar mamlakatimizda barqaror rivojlanishni ta'minlashga, atrof-muhit musaffoligini saqlashga va aholi salomatligini muhofaza qilishga xizmat qilmoqda.

Xulosa. Yangi O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi ekologik muammolarni hal qilishda zamonaviy va innovatsion yondashuvlarni qo'llash uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. Unda fuqarolarning toza va xavfsiz atrof-muhitda yashash huquqi kafolatlanib, davlatning ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik zararlarni kamaytirishga qaratilgan majburiyatlari belgilangan.

Shuningdek, ekologik ma'rifatni oshirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash va bu borada xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. Mazkur Konstitutsiya nafaqat ekologik muammolarni yechishda, balki O'zbekistonning barqaror va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lida dadil qadam tashlashini ta'minlaydi.

U ekologik muvozanatni tiklash va kelajak avlodlar uchun sog'lom atrof-muhitni saqlab qolishning poydevorini yaratadi. Shu tariqa, yangi Konstitutsiya ekologik masalalarga yangi va samarali yondashuvning negiziga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023y 2. Dj.Safarov <https://constitution.uz> Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.

3. M.Tursunov <https://yuz.uz> Konstitutsiya – ekologik barqarorlikning huquqiy poydevori 2025y

4. M.Mirislomov <https://cyberleninka.ru> “Central Asian Journal of Multidisciplinary research and management studies”//Yangi O'zbekistonning yangi konstitutsiyasi: Ekologik muammolarni yangicha yondashuv asosida bartaraf etishning negizi. 2024y No1/16 P-186

4. M.Mirislomov <https://cyberleninka.ru> “Central Asian Journal of Multidisciplinary research and management studies”//Yangi O'zbekistonning yangi konstitutsiyasi: Ekologik muammolarni yangicha yondashuv asosida bartaraf etishning negizi. 2024y No1/16 P-186